

KITOB TUMANIDA ZIYORAT TURIZMI VA UNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Abdullayev Anvarjon Akram O‘G‘Li

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Geografiya
(o‘rganish obyekti bo‘yicha) yo‘nalishi 2-kurs magistranti**

Toshkent, O‘zbekiston

Maxamadaliyev Ravshan Yuldashevich

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, Iqtisodiy va
ijtimoiy geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.n.**

ПАЛОМНИЧЕСКИЙ ТУРИЗМ В КИТАБСКОМ РАЙОНЕ И ЕГО ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ

Абдуллаев Анваржон Акрам Огли

**Мирза Улугбек назван в честь Узбекистан Национальный университет
Студент 2 курса магистратуры по специальности «География» (по
предметам) Ташкент, Узбекистан**

Махамадалиев Равшан Юлдашевич

**Мирза Улугбек назван в честь Узбекистан Национальный Университет,
доцент кафедры экономической и социальной географии, доктор
философии.**

PILGRIMAGE TOURISM IN THE KITAB DISTRICT AND ITS PRIORITY DIRECTIONS

Abdullayev Anvarjon Akram Ogli

**Mirza Ulugbek named after Uzbekistan National university 2nd year master's
student in Geography (by subject)**

Tashkent, Uzbekistan

Makhamadaliyev Ravshan Yuldashevich

Mirza Ulugbek named after Uzbekistan National University , Associate Professor, Department of Economic and Social Geography, Ph.D.

Annotatsiya: ushbu maqolada ziyorat turizmi mohiyati, turlari va Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanida ziyorat turizmining asosiy yo‘nalishlari, hududda sayyohlar oqimini kengaytirish va sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar borasida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ziyoratgoh, ziyorat turizmi, tarix, turist, maqbara.

Аннотация: этот в статье паломничество туризм сущность, типы и Кашкадарья провинция, Китаб в районе паломничество туризм основной направления, в области туристы поток расширение и в поле недостатки устранять расти в соответствии с научный рекомендации касательно слово идет.

Ключ слова: паломничество, паломничество туризм, история, турист, мавзолей.

Annotation: this in the article pilgrimage tourism essence, types and Kashkadarya province, Kitab in the district pilgrimage tourism main directions, in the area tourists flow expansion and in the field shortcomings eliminate to grow according to scientific recommendations regarding word goes.

Key words; pilgrimage, pilgrimage tourism, history, tourist, mausoleum.

Kirish Ziyorat turizmi - hozirgi kunda keng tarqalgan turizm sohasi hisoblanadi. Ziyorat turizmi mohiyatan ziyoratgohlarni ziyorat qilish jarayonidir. “Ziyorat” (arabcha **زيارة** ziyara) so‘zidan olingan bo‘lib “tomosha qilish”, “ko‘rishga borish (kelish)” ma’nolarni bildiradi. Musulmonlarda “ziyosat” – bu payg‘ambarlar qabri, diniy muqaddas joylarni ziyorat qilishdir.

Odatda, ziyoratlar diniy maqsadlar uchun kunlar, haftalar yoki hatto oylar davomida olib boriladigan uzoq safarlarni tashkil qiladi. Ular butun bir sayohatni o‘z ichiga olib, e’tiqodli odamlar o‘z dinlari bilan munosabatlarini mustahkamlash uchun boradigan maskanlardir. Ziyorat turizmi tashrif buyurish mumkin bo‘lgan shahar yoki ma’lum hududdagi masjidlar va cherkovlarga yoki boshqa diniy

diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurishni o'z ichiga olishi mumkin Ziyorat turizmi turistlarni diniy munosabat va urf-odatlariga erishish uchun to'liq yoki kuchli turtki beradigan turizm turidir.


Asosiy qism O'zbekistonda turizmning salohiyatli va istiqbolli turlaridan biri ziyorat turizmi hisoblanadi. Uning o'ziga xos xususiyati komil insonni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan bog'liq. Bugungi kunda jahondagi turistik obyektlarning 90 foizidan ortig'i bevosita yoki bilvosita din bilan aloqador. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Turizmni rivojlantirish bo'yicha 2021-yilda ham izchil islohotlarni davom ettiramiz. Ayniqsa, ziyorat turizmi va ichki turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor beriladi", deb ta'kidladilar. Ushbu strategik vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun xorijda sinalgan ziyorat turizmini rivojlantirish hamda Kitob tumanida ziyorat turizmi salohiyatini oshirishni takomillashtirish bo'yicha bir qator ustuvor yo'nalishlari belgilab qo'yilgan.

Kitob tumanining boy tarixi, madaniy sivilizatsiyaning chuqur ildizlari tuman hududida bir qancha arxeologik yodgorliklar, muqaddas qadamjolar va tarixiy-me'moriy obidalar mavjud ekanligidan darak beradi. Bugungi kunda Kitob tumanida 2 ta rasmiy turistik firma faoliyat ko'rsatmoqda. Mahalliy va xorijiy sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida tumandagi diniy turistik obyektlar yo'nalishi kartasi ishlab chiqilgan va shunga bog'liq tarzda transport logistik tizimi yo'lga qo'yilgan.

Bugungi kunda rasman "Madaniy meros obyektlari" ro'yxatiga kiritilgan 9 ta tarixiy-madaniy va arxeologik turizm obyektlari mavjud (1-jadval).

Hazrati Bashir maqbarasi – Kitob tumanining shimoli-sharqida Bashir MFYda joylashgan. (39°.27' sh.k., 67°.10' shq.u.) Ziyoratgoh tarixiy shaxs bilan bog'liq bo'lib, 1379-yilda Hazrati Said Ahmad nomi bilan ataladi. U tug'ilgan vaqtda uning befarzand otasi 90 yoshda, onasi esa 80 yoshdan oshgan edi. Onasi Yoshi keksaligi tufayli u ona sutisiz ulg'ayadi. Lekin ziyoratgohdagi buloq o'rnida

sut qaynab chiqqani haqida rivoyatlar bor Asl ma'nosi shunda bo'lib, ya'ni tojikcha "beshir-sutsiz" degan ma'noni anglatadi. Bu nom xalq orasida Bashir nomi bilan tarqalib ketadi. Hazrati Bashir ota-onasi qo'lida taxminan 4-5 yoshlariga qadar yashagan va keyinchalik o'zi mustaqil ravishda G'ori Hakim degan joyga 18-20 yoshlariga qadar umrguzaronlik qilgan (1-rasm).



1-rasm. Hazrati Bashir ziyoratgohi va Qashqadaryo viloyati turistik kartasi.

Bu yerda u o'zi ziravorlar ekib, mehnati evaziga kun kechiradi. Hazrati Bashir 96 yoshlarida olamdan o'tadi. Uning qabri archa ko'kargan tepalikda, o'zi uy qilib yopgan holatda turibdi. Qabrning ustiga ustalar tomonidan chiroyli sandiqqa o'xshagan yog'och yodgorlik o'rnatilgan

Hazrati Sulton ziyoratgohi – tumanning chekka sharqiy qismidagi Shut qishlog'idan yuqorida joylashgan ($39^{\circ}.08'$ sh.k., $67^{\circ}.37'$ shq.u.). Hazrati Sulton tog'ining siri hanuzgacha insoniyatni lol qoldirib kelmoqda. Bu cho'qqi dengiz sathidan 4163 m balandlikda bo'lib, buyuk tariqatchi ulamo Ahmad Yassaviy sharafiga shunday nomlangan. Bu joy Kitob shahridan 82 km sharqda, tumanning Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh, Zarafshon va Hisor tog' tizmalarining ayrilish joyida joylashgan G'avo cho'qqisiga tutash. Hazrati Sulton tog'ini mahalliy aholi "Ko'hi tavba", "Avg'oyi qiyomat" deb ham yuritiladi. Shuningdek, tog' cho'qqisi haqida xalq orasida bir qator rivoyatlar mavjud bo'lib, cho'qqi ilohiy kuchga egaligi sababli ham u yerga chiqish va tasvirga olish juda qiyinligiga ishoniladi.

Xo'ja Ilmkon maqbarasi – Ziyoratgoh tuman sharqida, Xo'jailmkoni qishlog'ida joylashgan. Bu ziyoratgoh ulug' donishmand, tasavvuf ilmining targ'ibotchisi, Mavlono Abdulboqi Xojagi Imkonagiy (1510-1600) nomlari bilan bog'liqdir. Bu kishi Xojagon Naqshbandiya yo'nalishidagi tasavvufning fiqh hadisshunoslik ilmining buyuk allomasi bo'lgan. XVII asrga mansub usti gumbaz shaklida yopilgan xonaqo oldidagi sag'anada Xazrati Xojagiy Imkanagiy hamda o'g'illari Mavlono Xojagiy Abul Qosim dafn etilgan.

Xulosa. Diniy ziyoratgohlar kam mablag' hisobiga katta daromad manbaiga aylanishi shubhasiz. Mamlakatimizning barcha viloyatlaridan o'nlab, yuzlab diniy qadamjolar mavjud. Islom dunyosida katta xizmat qilagn, avliyo darajasiga ko'tarilgan siymolarimiz abadiy qo'nim topgan maskanlarini faqatgina mahalliy darajada, ya'ni tuman yoki viloyat miqiyosidagi bilamiz, xolos. Binobarin, bunday muqaddas ziyoratgohlarni respublika va xalqaro darajadagi diniy ziyoratgoh obyektlariga aylantirish mumkin. Shu bilan birga, respublika hududidagi yirik ziyorat obyektlariga olib boruvchi yo'nalishli avtotransport qatnovi tizimini yo'lga qo'yish, hududdagi aholini boshqa hududga tashkillashtirilgan sayohat qilishlari uchun transport qatnovlarini yo'lga qo'yilishi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bozarov N. Ziyorat turizmi va uni turizm sohasida tutgan o'rni Academic Research in Educational Sciences. T: - 2022.
2. Muxitdinov Sh. Mintaqa turizmini rivojlantirishning optimal tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida). Urganch -2025.
3. Uzaqov J. Mintaqada ziyorat turizmi salohiyatini oshirish mexanizmini takomillashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida).Qarshi-2024.
4. Usmanov M.R. Turizm geografiyasi, Samarqand - 2020.
5. Sharipova X., Safarboyeva D. Turizm iqtisodiyoti. T:- „O'qituvchi“ 2011

6. Xoliqov N. Ziyorat turizmiga oid destinatsiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish (Samarqand viloyati misolida). Samarqand – 2024.